

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI

Baxronova Xurshida

*Navoiy shahar 24 – sonli “Qaldirg’och”
Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kompetentligining mazmuni hamda uni rivojlantirishning usullari va yo’llari xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: kompetensiya, rivojlanish, kichik soha, o’yin, bilish, muloqot, ijodiy rivojlanish, kompetentlik.

Annotation: this article provides insights into the content of preschool children’s competencies and ways and means to develop them.

Key words: competence, development, small field, play, cognition, communication, creative development, competence.

KIRISH

«Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldidan qat’i nazar, bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun sharoitlarni yaratishdan iborat...». Ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi.

Xorijiy olimlar tomonidan inson kapitaliga qilingan investisiyalarning kelajakda eng ko‘p naf keltiradigani shaxs shakllanishining dastlabki, ya’ni maktabgacha ta’lim bosqichida qilingan investisiyalar ekanı isbotlagan. Qayd etish joizki, ijtimoiy-iqtisodiy holati pastroq bo‘lgan oila farzandlariga maktabgacha ta’lim yoshida qilingan investisiyalar, o‘ziga to‘q oila farzandlariga qilingan investisiyalarga nisbatan ko‘proq foyda keltiradi. Sababi maktabgacha ta’lim bolaning nafaqat ijtimoiylashishiga ko‘maklashadi, balki shaxsning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga asos yaratadi va maktabga tayyorlaydi.

ASOSIY QISM

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari deganda asosan zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda.

“Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta’lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

«Competentia» lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjima qilinganda unung lug'aviy ma'nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo'lgan kishi» kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo'l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobaddosh tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Bu nazariy jihatdan kompetenetlik tushunchasining umumiylarini ochib beradi. Shuning uchun biz maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kompetensiyalari qanday mazmun kasb etishi bilan tanishib o'tamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida kompetentlilik yondashuvi bolaning o'suvchi shaxsini hayotga, shu jumladan, maktabda o'qishga tayyorlashni, unda ma'naviy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o'z menini shakllantirish bilan bog'liq bo'lган hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'ladigan faoliyat usullarini ko'zda tutadi.

Boshlang'ich asosiy kompetensiyalar faoliyat va xulq-atvor sub'ekti sifatida bolaning yaxlit rivojlanishini talab qiladi.

6-7 yoshdagi maktabgacha bo'lgan bolaning umumiylarini kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

- Kommunikativ kompetensiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish kompetensiyasi.
- O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.
- Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.
- Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Maktabgacha ta'limning Davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi hisoblangan Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

-bilish jarayonining rivojlanishi;
-ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi; turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi; o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi; shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi; sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi; xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: o‘z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi; o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi; kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi; murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: nutqni eshitadi va tushunadi; o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi; ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi; ikkinchi tilni egallah bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi; badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi; so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi; yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi; o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi; predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi; raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi; makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi; elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi; atrof muhitdagi voqealari-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi; atrof muhitga nisbatan ehtiyyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

“Ijodkorlik” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: san’at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi; milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi; san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish

uchun foydalanadi; insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ta’lim muassasalari oldiga qo’yiladigan maqsadlardan biri ijtimoiy kompetentlikning yuqori darajasini shakllantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratish, ijtimoiy psixologiya, pedagogika metod va usullarini tanlash hisoblanadi. Bunday shartsharoitlarni ta’lim muassasasi tarbiya sohasi imkoniyatlaridan foydalanib yaratish mumkin, tarbiya kuchni bolalarga emas, balki ularni o’rab turgan sharoiti, yashab turgan atrof-muhitiga qaratish kerak. Ta’limning asosiy vazifasi ham madaniyat, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o’zlashtirish asosida jamiyatga tez kirishib keta oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida.
2. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2019 йил 9-сон 258 ижтимоий компетентликни касб танлашга таъсири Ориббоева Диляфруз Дадамирзаевна НамДУ Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси
3. <https://fayllar.org/boshqaruv-kompetensiyalari-reja-kompetensiya-va-kompetentlik-t.html>